

MAVJUD BOG‘-PARK HUDUDLARINI QAYTA TIKLASH REVITALIZATSIYASI

Xaydaraliyev Javohir Jahongir o‘g‘li

TAQU

javohirxaydaraliyev293@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.11.2025

Revised: 05.11.2025

Accepted: 06.11.2025

KALIT SO‘ZLAR:

revitalizatsiya,
landshaft arxitekturasini,
shahar muhiti,
ekologiya, bog‘-park,
rekonstruksiya,
barqaror rivojlanish.

Ushbu maqolada shahar landshaft arxitekturasini obyektlarini revitalizatsiya qilishning ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan. Toshkent shahridagi bog‘-park hududlarining ekologik, estetik va funksional holatini yaxshilash zarurati, shuningdek, zamonaviy shahar sharoitida ularni qayta tiklash va aholining dam olish ehtiyojlariga moslashtirish masalalari tahlil qilinadi. Revitalizatsiya jarayonida ekologik muvozanatni saqlagan holda landshaftni yangi talablarga moslashtirish, “bufer-qalqon” hududlarini tashkil etish hamda xalqaro tajribalardan foydalanishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kirish. Revitalizatsiya (lotincha re – yangilanish va vita – hayot, yani hayotning qaytishi). Ilmiy va amaliy faoliyatda (arxitektura, tibbiyot, kosmetologiya, texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat, tilshunoslik va boshqalar) qo‘llaniladigan tushuncha, xarakterlovchi tiklanish jarayonlari, tiklanish. [1-2].

Shahar muhitini yaxshilashning muhim omillaridan biri turli tarixiy davrlarda yaratilgan landshaft arxitekturasining obyektlarini (bog‘lar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, bulvarlar) saqlab qolishdir. Shahar aholisi uchun dam olish maskani sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan zamonaviy shahar tabiatning ushbu tarkibiy qismlari, butun shahar muhitining ekologik holatiga ijobiy ta’sir qiluvchi landshaftning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Asosiy qism. Katta shaharlardagi yashil maydonlar shahar ekologik holatiga katta samara bilan ta’sir etadi. Jumladan, Toshkent shahrida bu tasnifdagi jamoat obyektlariga 91 ta madaniyat, istirohat bog‘lari, xiyobon va sayilgohlar kirib jumladan 21 ta faol va tinch dam olish bog‘lari (Quyoshcha nuri, Furqat nomli orom va madaniyat bog‘i, Lokomotiv orom va ma’daniyat bog‘i, Anhor lokomotiv bog‘i, Bolajon, Sentral park, Green park, Yangi sergili, Nav’ro‘z bog‘i etnopark, Nurafshon, Abdulla Qodiriy, Bog‘ishamol, EKOpark, Tashkent Lend, G‘afur G‘ulom nomli madaniyat va istirohat bog‘i, OAZIS akva park, Magic city istirohat va madaniyat bog‘i, Do’slik madaniyat va istirohat bog‘i, Ashxobod istirohat va madaniyat bog‘i, hamda Toshkent shahar obodonlashtirish boshqarmasi bo‘limi tomonidan ro‘yhatga olingan quyidagi 24 ta yashil maydonlar: “Bo‘g‘i Eram” maydoni, “Jasorat”

maydoni, “Mirzo Ulug‘bek” maydoni, Zarqaynar ko‘chasi “Bolalar ijodiyot uyi”, “Temurilar” muzeyi, Amir Temur maydoni yonidagi “Grand Plaza Hotel”, Alisher Navoiy va Amir Temur ko‘chasi kesishmalarida joylashgan “Siti Palaza” mehmonxona maydoni, “Buriyar” maydoni, “Turkiston” maydoni, “Amir Temur” maydoni, Buyuk Turon ko‘chasida joylashgan “Sharof Rashidov” maydoni, Yoshlar ijod saroyi, Buyuk Turon va Matbuotchilar ko‘chasida joylashgan “Sh. Rashidov” maydoni, “Alisher Navoiy” maydoni, “Istiqlol” maydoni, “Oliy majlis” maydoni, “Konservatoriya” maydoni, “Shahidlar xotirasi” xiyoboni, “Milliy bog‘”, “Sayilgo‘x” maydon, “A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona” maydoni, “Hazrati–Imom” maydoni, Bunyodkor ko‘chasi.

Shu bilan birgalikda alohida etirof etiladigan ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish obyektlari: Aeroport maydoni, Buyuk Ipak yo‘li maydoni, O‘zbekiston tarixi muzeyi, A.Navoiy teatri, Kulolchilik bog‘i, She‘riyat bog‘i, Zulfiyaxonim maydoni, Istiqlol saroyi bulvari, Anhor kanali qirg‘og‘i (I.Karimov va Afrosiyob shoh ko‘chasi hududidagi), Anhor qirg‘og‘i (I. Karimov shoh ko‘chasi va I.Karimov muzeyi oldidan o‘tgan qismi) Anhor qirg‘og‘i (A. Navoiy shoh ko‘chasi va I. Karimov shoh ko‘chasi), Pushkin metro bekati, Mustaqillik va Parkent ko‘chalari oralig‘idagi (sobiq Pushkin) maydoni, O‘zbekiston mehmonxonasi maydoni, Rashidov bulvari (eski Moviy Gumbazlar), A.Qodiriy ko‘chasidagi sayilgoh va boshqa yashil hududlar, “Gulshan” madaniyat va istirohat bog‘i, “Karusel” madaniyat va istirohat bog‘i, “Bolajon” madaniyat va istirohat bog‘i, “Ibn Sino” istirohat bog‘i, “Qichqiriq” sohil bo‘yidagi istirohat bog‘i, Toshkent Siti bog‘i, K.Behzod nomidagi memorial bog‘–muzeyi, A. Qodiriy nomidagi madaniyat va dam olish bog‘i, Seul bog‘i, Akademik F.N. Rusanov nomidagi Toshkent botanika bog‘i, Toshkent hayvonot bog‘i, Yapon bog‘i, Baxt ko‘li, Tashkent golf klubi maydoni, Vokzal maydonining ko‘kalamzor hududi, Anhor qirg‘og‘i (Baynalminal ko‘chasi), Mustaqillik maydoni, Sputnik massivi maydoni, O‘zbek tili va adabiyoti universiteti maydoni, Temiryo‘lchilar madaniyat saroyi maydoni, A. Navoiy nomidagi kinoteatr maydoni, A. Qodiriy ko‘chasi bo‘ylab shahar bulvari, Bobur ko‘chasi bo‘yidagi Salar kanali qirg‘og‘idagi maydon, “Minor” masjidini ko‘kalamzor hududi, A. Temur ko‘chasi bo‘ylab joylashgan biznes markazi maydoni, “Paxtakor” stadionining janubiy kirish qismi oldidagi maydon, Stomatologiya instituti oldidagi maydon, Qurolli Kuchlar Markaziy muzeyi oldidagi maydon, H. Olimjon maydonlari kiradi [3].

Shu bilan birga, ortib borayotgan texnogen bosim, shu jumladan, sanoat va transportning atrof–muhitni ifloslantirishi ta’siri ostida, bog‘ hududlarining jadallik bilan buzilishi namoyon bo‘lib, ular o‘z ekologik salohiyatini yo‘qotmoqda.

Istirohat bog‘lari obyektlaridan foydalanish xususiyatlarining o‘zgarishi va tashrif buyuruvchilar sonining sezilarli darajada ko‘payishi ko‘kalamzorlashtirilgan maydonlarning holatiga, birinchi navbatda, o‘simliklarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniq. Kuzatuv tadqiqotlariga ko‘ra, Toshkentda ijtimoiy himoyalangan aholining ko‘pchiligi uchun umumiy foydalanish ko‘kalamzorlari dam olish uchun yagona joy bo‘lib xizmat qiladi.

Shahar chekkalarida joylashgan va ilgari o'zlashtirilgan yashil hududlardagi bog'–parklari landshaftlarini shahar sharoitlariga moslashtirish ancha muammo tug'dirib, bu, asosan, bir vaqtning o'zida mijozlarning ko'p sonda tashrif buyurishi, tutash ko'chalarning atmosfera havosining yuqori darajada gaz bilan ifloslanishi va maysazorlarda tuproq sho'rlanishining ortishi bilan bog'liqdir.

Istirohat bog'–parklari landshaftining buzilishi va beqaror holatga o'tishi quyidagi hollarda namoyon bo'ladi: tashrif buyuruvchilarning dastlabki piyoda yo'nalishlaridan tashqarida tartibsiz harakatining ortib borishi natijasida yo'l va yo'laklarning tarmog'li holatining buzilishi; maysazor qoplamasi sirtlarining qisqarishi; bolalar o'yin maydonlarining estetik jihatlarining yangi zamon talablariga va texnologiya imkoniyatlariga javob bermasligi; savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlar joylashgan hududlarni betartib tashkil etish va h.k.lar.

Shahar binolarining joylashishi tobora zichlashishi va uning tarkibidagi yashil maydonlarning qisqarish, istirohat bog'larini va boshqa yashil hududlarga bo'lgan ehtiyoj yanada ortmoqda, shu bilan birga bu hududlarga turli yoshdagi aholining ijtimoiy ehtiyojlari doirasi ham ortib bormoqda. Bunday ta'sirga uchragan bog'larga misol qilib, Toshkent shahridagi Mirzo Ulug'bek, TTZ 1 dahasidagi G'ofur G'ulom bog'ining shahobchalarini keltirish mumkin. Ushbu bog'larni rekonstruksiya qilish zarurati nafaqat ularning hududidan foydalanish intensivligining sezilarli darajada oshishi bilan bog'liq, balki bu hududlarning arxitektura va landshaft jihatidan tashkil etilishi ma'naviy va estetik jihatdan ancha eskirgan bo'lib, zamonaviy talablarga mos kelmay qoldi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan shahar muhitidagi muammolar va shahar muhitida yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni yechish bilan bog'liq bo'lgan hudud landshaftlarni qayta tashkil etishni amalga oshirish usullaridan biri sifatida tadqiqotda landshaft bog'–park hududlarini revitalizatsiyasi (jonlantirish)ni amalga oshirish taklif qilinadi.

Revitalizatsiya jarayonida mavjud bog'–park hududlarining landshaftini yangi sharoitlarga moslashtirish, qayta tashkil etilgan xizmat ko'rsatish tizimiga tayangan holda yo'l va so'qmoqlar tarmog'ining joylashishini belgilash, turli yoshdagi bolalar guruhlarining o'yinlari va hordiqalari uchun belgilangan ochiq maydonlar majmuasini kengaytirish va hududdan kechki vaqtida uzoqroq foydalanish imkoniyatini ta'minlash nazarda tutiladi.

Dastlab yaratilgan landshaft arxitekturasining obyektlarini zamonaviy rekreasion faoliyat mazmuniga moslashtirish yo'llarini izlash zarurati kompozitsiyaning yaxlitligi va bog'–parklarning badiiy ko'rinishining o'ziga xos xususiyatlariga zarar yetkazmasdan, belgilangan vazifalari doirasini bosqichma–bosqich o'zgartirish uchun zahiralarni aniqlash maqsadida ular hududlarini o'rganib chiqish uchun asos bo'ladi. Turli mamlakatlar amaliyoti ko'rsatganidek, alohida muhofazalanadigan (qo'riqlanadigan) tarixiy landshaftli obyektlarining holati ularni aholining zamonaviy ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Bunday jarayonga nisbatan mutaxassislarning fikri turlicha bo'lishi mumkin. N.A. Ilinskayalar ta'kidlaganidek har xil turdagi zamonaviy dam olish shakllari uchun tarixiy bog'lardan foydalanishning mavjud amaliyoti vaqtinchalik hodisa sifatida ko'rib chiqilishi kerak, chunki, bu shahar aholisining dam olish muammosini to'liq hal qilmaydi va shu bilan birga tarixiy ansambillarning holati va tashqi ko'rinishi zararli ta'sir ko'rsatadi. Tarixiy bog'larni saqlab qolishning eng samarali chorasi bu "bufer-qalqon" deb ataluvchi yangi bog'larni tashkil etishdir [4-5]. "Bufer" maydonlari moslashuvchan va xilma-xil bo'lib, turli yoshdagi aholining rekreatsion faoliyati mazmuniga bo'lgan talabni doimiy ravishda yangilanishiga va atrof-muhitni uyg'unlashtirish usullari haqidagi g'oyalarni o'zgarishiga moslashishi kerak.

Dam olish hududining yangi jihatlarining shakllanishiga yangicha, o'zga yo'nalishni tanlashga misol qilib K. Boymirzaev O.N. Voronina, O.P. Lavrova, A.V. Sichevalarning tabiiy landshaftdan foydalanish, o'zgartirish va uni imkon qadar saqlab qolish zarurati o'rtasida [6] oqilona yechim topish kerakligi haqidagi fikrini keltirish mumkin. Har bir arxitekturaviy va landshaft obyektiga nisbatan tuzilgan ekologik tamoyillar quyidagilardan iborat: landshaftlarni loyihalashda dastlabki tabiiy sharoitlarni muhofaza qilish va yaxshilash, arxitekturaviy va landshaft obyektini berilgan dastur bo'yicha faoliyat ko'rsatish jarayonida takomillashtirish, shuningdek "obyekt – muhit" va vaqt o'tishi bilan umumiy tabiiy-antropogen holatning to'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqalar o'zgaruvchanasi imkoniyatlarini hisobga olish [7].

Ushbu yondashuvning qoidalaridan biri sifatida landshaft obyektlarini, shu jumladan, ilgari barpo etilgan bog'-park hududlarini yaxshilash imkoniyatini ko'rib chiqar ekanmiz, revitalizatsiyaning eng maqbul usullarini aniqlash maqsadida uni amalga oshirish bo'yicha xalqaro amaliyotdagi misollarni tahlil qilish joyizdir.

Rekonstruksiya ishlarini amalga oshirishda kompozitsion va funksional uzluksizlik tamoyili jarayonida kompozitsion o'qlar tizimini iloji boricha saqlab qolish, bog'dagi ochiq va yopiq maydonlarni keng ko'lamda muvofiqlashtirish, murakkab tarkibga ega bo'lgan gullar guruhini ijodiy yondashgan holda joylashtirish va markaziy piyodalar sayrgohining yangicha talqin etishdan iborat.

Tashrif buyuruvchilarning o'zgargan ehtiyojlariga moslashish, ulardan foydalanishning ustuvor xususiyatiga qarab bog' maydonlarining landshaftini tashkil qilish orqali namoyon bo'ldi. Atrof-muhit barqarorligining zaruriy sharti landshaftning kam himoyalangan hududlariga zararli ta'sirni maksimal darajada cheklash bilan passiv-tafakkur va harakatdagi dam olish uchun mo'ljallangan "turg'un" va "haraktlanuvchi" bo'shliqlarning maqbul nisbatini ta'minlashdan iborat. Masalan, Luvrni rekonstruksiya qilish natijasida [8] bog' bo'ylab o'tish intensivligining ortishi markaziy xiyobonga tutashgan maysazor yuzalarini himoya qilish masalasini hal qilishni talab etdi, buning uchun piyodalar yo'lagida yangi ekilgan daraxtlar maxsus to'siqlar bilan o'ralgan, sayr qilish yo'llari bo'ylab yosh daraxtlarni bosketlar bilan o'ralgan holda ekish joylarini tanlashda turli xilda dam olish

shakllari va tashrif buyuruvchilarning harakatlanishi uchun bo'sh maydonlardan erkin foydalanishni ta'minlash kerakligi hisobga olingan. Parterlar yaqinida o'rindiqlarni daraxtlar orasiga joylashtirish eng keng tarqalgan usul bo'lib, ular daraxtlar bilan bir qatorda o'rnatiladi, bu esa yo'lkaning kengligini kamaytirmaydi va bog'dagi o'rindiqlardan ochiq yashil maydonlarini to'siqliklarsiz tomosha qilish imkonini beradi.

Bog'da qo'shimcha xizmat ko'rsatish nuqtalarini joylashtirishda tashrif buyuruvchilarning eng intensiv harakat yo'nalishlarini hisobga olish bog' hududlari barqarorligini ta'minlashning muhim jihati hisoblanadi. Xususan, Tyulri (Fransiya) bog'larida rekonstruksiya ishlari olib borish jarayonida, yozgi kafe uchun joy tanlashda manzaraviy suv havzalarga ega basketlarning joylashtirilishda tashrif buyuruvchilarning intensiv qatnovi ham hisobga olindi. Uning tarixiy landshaft tarkibiga kiritilishi ko'p jihatdan park muhitida eski va yangi muhit o'rtasidagi bir-biriga zid munosabatlar haqidagi mavjud g'oyalarni bartaraf etishga yordam berdi. Bog' va istirohat bog'iga tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini qondiradigan holda atrof-muhitning dam olish uchun qulaylik darajasini aks ettiruvchi soyabonlar ko'rinishidagi yozgi kafe suv havzasi qirg'oqlariga juda mos keladi.

Bog'-park obyektlarini rivojlantirishda mavjud bo'lgan usullarni guruhlariga ajratish imkonini beradi:

- hududning funksional moslashuvi usuli;
- hududni ekologik jihatdan yaxshilash usuli;
- bog'-park muhitini estetik uyg'unlashtirish usuli.

Hududning funksional moslashuvi. Bog' hududini tarkibiy farqlash usuli-bog'ga tashrif buyuruvchilarning muhitga ta'siri har xil bo'lgan obodonlashtirilgan maydonlar tizimini yaratishdan iboratdir. Jumladan, ekologik barqarorlikning zaruriy sharti landshaftlarning kam himoyalangan hududlariga halokatli ta'sirni maksimal darajada cheklagan holda tinch dam olish hududlari va mobil dam olish uchun mo'ljallangan maydonlarning nisbati.

Tranzit joylarini tartibga solish- piyodalar harakatining intensiv foydalaniladigan yo'nalishlarining qat'iy chegaralarini (ko'chalarga maxsus qoplama, tosh yotkizish, to'siqlar) belgilashdan iboratdir. Ushbu usulning muhim jihatlaridan biri-asosiy piyoda yo'llari bo'ylab bir necha qavatli yorug'lik konturlarini joylashtirish bu qorong'i vaqtda xavfsiz joylarning chegaralarini belgilash uchun mo'ljallanadi.

Hududni ekologik jihatdan yaxshilash usuli. Tabiatning yo'qotilgan tarkibiy qismlari o'rnini qoplash – bu zarar yetkazilgan, yo'qotilgan o'simlik turlarini yangi o'simlik ko'chatlari bilan almashtirish va piyodalar tartibsiz harakatlanadigan joylarda yaxlit, sifatli maysazorlarni yaratishdan iborat. Istirohat bog'lari hududlarida insolyatsiya vaqtini o'zgartiradigan va zich ekilishi evaziga tashrif buyuruvchilarni shamoldan himoyalovchi o'simliklar muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Qirg'oq bo'yi hududlaridan foydalanish – bu istirohat bog'laridagi diqqatga sazovor hududlardan biri – suv havzalariga qulay o'tishni ta'minlash maqsadida, qo'shimcha chora –

tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bog'dagi suv havzalari qirg'oqlari bo'ylab tomosha maydonchalari bilan jihozlangan yo'laklar tarmog'ining tartibli tizimi obodonlashtirilmagan, tabiiy holatda qoldirilgan landshaft qismlarini tashrif buyuruvchilarning salbiy ta'siridan birmuncha himoya qiladi.

Bog'–park muhitini estetik uyg'unlashtirish usuli. Kompozitsion o'qlar va tugunlarni kuchaytirish- istirohat bog'lari kompozitsiyasining asosiy tarkibiy qismlarining badiiyligini oshirish, jumladan, ochiq maydonlarning yangilangan mazmunini ochib berish maqsadida landshaft dizayni vositalaridan, qo'shimcha rang va yorug'lik yordamida urg'u berish usulidan foydalanishdan iborat.

Istirohat bog' muhitining qismlarini semantik talqin qilishning alohida ahamiyatini hisobga olgan holda, bog' maydonlarining axborot–ramziy xilma–xilligini oshirish uchun barqaror belgilar tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Istirohat bog'i muhitining maydon o'lchamlarini o'zgarishi bilan bog'liq holda, o'z o'lchamlari bo'yicha maqbul o'lchamlardan baland bo'lgan katta daraxt va butalarni saqlab qolish zaruriyatida katta ahamiyatga ega. Hajm bo'yicha mavjud katta o'simliklarni yosh daraxtlarni ekish bilan moslashtirishda yangi ekilgan daraxtlarning balandligi inson balandligiga yaqinlashtiruvchi o'tish shkalasini tuzishga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, daraxtlarning hududning kompozitsion yaxlitligiga hamda insonning ruhiy qulay holatiga ta'sir qiladi.

Mavjud bog'–park obyektlarini qayta tiklash bo'yicha yuqorida ko'rib chiqilgan misollarga tayangan holda landshaftni o'zgartirishning asosiy yo'nalishlarini ajratishimiz mumkin [9-10]:

- maydon yuzasi qoplamalarining bezagini talqin qilish va tabiiy shakllarning geometrik uyg'unlashtirishga dizaynerlik yondashuvi asosida “bufer” maydonlarini shakllantirish;

- muhit dizaynining “harakatlanuvchi” vositalari yordamida me'moriy obyektlar kompozitsiyalaridagi “bo'shliqlar”ni to'ldirish;

- shakl hosil qilishning geometrik qonuniyatlari asosida yangi avlod bog'–park obyektlari tarkibiga tarixiy muhitning eng ifodali tabiiy-tarkibiy qismlarini kiritish;

- hududdan o'tgan vaqt davomida qay tarzda foydalanganlik mazmunini ochib berish maqsadida dizaynerlar tomonidan landshaftning asosiy saqlanib qolgan belgilarining qo'llanilishi.

Mavjud bog' va istirohat bog'lari landshaftini revitalizatsiyasi bo'yicha landshaft obyektlarining sifatini maqsadli o'zgartirishni ta'minlovchi va ijtimoiy jarayonlarning harakatini hisobga olgan holda doimiy o'zgartirishlarni talab qiluvchi harakatlarni o'z ichiga oladi:

- istirohat bog'lari obyektlarining tutash turar–joy binolari bilan o'zaro aloqa aholining yosh toifalarining hozirgi vaqtda ta'minlanayotgan va talab qilinadigan dam olish turlarini taklif etishdagi muammoli vaziyatlarning tahlili;

2) foydalanish darajasi ast bo'lgan bog'–park hududlarining zahiralarni aniqlash va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida mavjud tabiiy shart–sharoitlarni aniqlash;

3) zarur funksional aloqalarni aniqlash va qayta tiklanayotgan hudud tarkibida qo'shimcha bog'–park obyektlarining maqsadiy vazifalarini belgilash;

4) hududning ilgari yaratilgan tabiiy karkasini saqlab qolgan va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlangan holda aloqa tizimini va qo'shimcha rekreatsion hududlarni takomillashtirish chora–tadbirlarini ishlab chiqish;

5) bog'–park hududlarini rivojlantirish uchun markazlashtirilgan va xususiy investitsiyalarni jalb qilgan holda aralash moliyalashtirish rejalarini amalga oshirish.

Mavjud jonlantirish bo'yicha olib borilgan ishlarning natijasi–bu bog'lar va istirohat bog'lari landshaftini tarkibiy o'zgarishi bo'lib, bu o'zgarishlar foydalanishning o'zgargan xususiyatiga mos kelishi va ochiq maydonlarni qat'iy cheklangan tartibda o'zlashtirilgan va aholi eng ko'p tashrif buyuradigan maydon chegaralarini belgilangan holda tabiiy asosni saqlab qolish sharti bilan amalga oshirilishi lozim.

Xulosa: Shahar muhitining ekologik, estetik va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda bog'–park hududlarini revitalizatsiya qilish (jonlantirish) jarayoni muhim o'rin tutadi. Zamonaviy shahar sharoitida aholining dam olish, madaniy hordiq chiqarish va sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash uchun yashil hududlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu bois, tarixiy va mavjud landshaft obyektlarini asrab-avaylab, ularni yangi davr talablari asosida qayta tashkil etish shaharsozlik siyosatining ajralmas qismi bo'lishi zarur.

Revitalizatsiya jarayonida ekologik muvozanatni saqlagan holda hududlarning funksional, estetik va ijtimoiy jihatdan moslashtirilishi, ularning tabiiy karkasini asrash bilan bir qatorda, zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish shahar hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Toshkent shahridagi ko'plab bog'–parklar bu yo'nalishda qayta tiklanishni talab etmoqda, bu esa o'z navbatida, aholi uchun qulay, xavfsiz va chiroyli dam olish maskanlarini yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Низкий С.Е. Возможности использования биологических ресурсов антропогенно нарушенных земель в Амурской области. Автореф. дис.. на соискание ученой степени док. биологических наук. Благовещенск – 2014

2. Гошовский Я.А. Феноменология ревитализации депривированной личности. 1 January 2015. [oai:esnuir.eenu.edu.ua:123456789/11733](http://oai.esnuir.eenu.edu.ua:123456789/11733).

3. <https://uz.yellowpages.uz/rubrika/istirohat-boglari/toshkent>.

4. Исаченко А.Г. Оптимизация природной среды (географический аспект). – М.: Мысль, 1980. – 264 с. <https://library.samdu.uz/download/2032>.

- =====
5. Ильинская Н.А. Восстановление исторических объектов ландшафтной архитектуры. Ленинград. Ленинградское. отд., 1984. – 78 с. <http://www.restsouz.ru/upload/biblio/Vosstanov-pam-kultury.pdf>.
 6. Воронина О.Н. Эволюция архитектурно-ландшафтной организациии крупнейшего города (на примере Нижнего Новгорода). автореф. дис. канд. Архитектуры. – М., 1993. – 31с.
 7. Сычева А.В. Ландшафтная архитектура: учеб. пособие / Минск: парадокс, 2002. – 88 с.
 8. <https://planetofhotels.com/guide/ru/franciya/parizh/sad-tyuilri>.
 9. Hududlarni obodonlashtirish SHNQ 3.01.05–22” ga kiritilgan (Qishloqqurilishloyiha 22.02.2023y. №158/09), (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi 2023 yil.“27” mart. 24-06/2609-son ma’lumotnomasi).
 10. DIZAYN KOD. Umumiy talablar. (Qurilishda texnik me’yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti 28 mart 2023 yil. 36-son. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi 2023 yil.“27” mart. 24-06/2609-son ma’lumotnomasi).